

2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra yuridik shaxs bo‘lgan korxona va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha tahliliy ma’lumot^{*}

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida 3 646 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 892 taga ko‘p dir.

Natijada, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 074 ta (20,5 %) ga o’sgan hamda ularning umumiyligi soni 18 043 tani tashkil etgan.




^{*}) fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni 18 043 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,5 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,1 % savdo, 16,2 % sanoat, 14,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,4 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa hamda 25,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning ulushi (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, %)



Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Umumiy soni, birlik		01.01.2020 yil	
	01.01.2019 yil	01.01.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	14 969	18 043	120,5	100,0

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 290	2 676	116,9	14,8
Sanoat	2 381	2 931	123,1	16,2
Qurilish	1 402	1 870	133,4	10,4
Savdo	2 832	3 814	134,7	21,1
Tashish va saqlash	535	615	115,0	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 016	1 175	115,6	6,5
Axborot va aloqa	194	206	106,2	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	207	252	121,7	1,4
Boshqa turlari	4 112	4 504	109,5	25,1

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5 538 ta), Sharof Rashidov (2 985 ta), Zomin (1 477 ta), G'allaorol (1 394 ta) va Forish (1 247 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (399 ta), Zafarobod (512 ta) va Arnasoy (558 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 17 190 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 964 taga (20,8 %) o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, %)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5 261 ta), Sharof Rashidov (2 893 ta), Zomin (1 400 ta), G'allaorol (1 370 ta) va Forish (1 195 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (372 ta), Zafarobod (444 ta) hamda Arnasoy (558 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(2019-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)


2019-yil yanvar-dekabr oylarida 3 646 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 892 taga ko'pdir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
yillar kesimida soni**
(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (1 081 ta), Sharof Rashidov (629 ta), Zomin (312 ta) va G'allaorol (293 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (84 ta), Zafarobod (93 ta), Arnasoy (120 ta), Mirzacho'l (134 ta), Do'stlik (143 ta) hamda Paxtakor (152 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
hududlar bo'yicha soni**
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 100 ta), sanoat (753 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (556 ta), qurilish (438 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalarida (184 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (46 ta), axborot va aloqa (47 ta), tashish va saqlash (103 ta) hamda boshqa faoliyat turlari (419 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 14 058 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4 190 ta, oilaviy korxonalar – 733 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8 797 ta va boshqalar 338 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida oilalar va
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

	Oilalar Soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.01.2019 yil	01.01.2020 yil
Jizzax viloyati	301 297	11 239	14 058
Jizzax shahri	37 360	3 687	4 554
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	8 989	310	425
Baxmal	31 351	574	726
G`allaorol	39 704	867	1 104
Sharof Rashidov	51 364	2 045	2 544
Do`sstlik	12 472	415	510
Zomin	35 193	839	1 096
Zarbdor	17 119	501	585
Zafarobod	10 004	229	302
Mirzacho`l	11 051	316	435
Paxtakor	21 659	385	495
Forish	18 885	826	998
Yangiobod	6 146	245	284

*) 2019 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlар) fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to‘g’ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda
(2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, %)**



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1-yanvar holatiga ko'ra)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 9 127 tani tashkil etib, ulardan 8 797 tasi yoki 96,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 313 taga yoki 33,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatda 2 469 taga yaqin mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52,9 % ga ko'pdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar-dekabr oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	9 127	8 797	2 469

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 572	1 488	398
Sanoat	1 777	1 718	480
Qurilish	1 359	1 319	387
Savdo	2 323	2 249	773
Tashish va saqlash	463	449	99
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	530	509	98
Axborot va aloqa	93	89	36
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	119	117	27
Boshqa turlari	891	859	171

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning jami sonidagi eng ko'p ulushi savdoda 25,6 %, sanoatda 19,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16,9 %, qurilishda 15,0 % va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5,8 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kam ulushi esa axborot va aloqa 1,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,3 %, tashish va saqlashda 5,1 % va boshqa faoliyat turlarida 9,8 % ga to'g'ri kelgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(hududlar kesimida 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirdorlik subyektlari soni
(2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14 011 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-yanvar holatiga qaraganda 25,1 % ga oshgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar
(hududlar kesimida 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxona	mikrofirmalar
Jizzax viloyati	14 011	606	13 405
Jizzax shahri	4 529	252	4 277
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	424	9	415
Baxmal	724	19	705
G'allaorol	1 104	50	1 054
Sharof Rashidov	2 544	117	2 427
Do'stlik	504	19	485
Zomin	1 094	40	1 054
Zarbdor	582	19	563
Zafarobod	301	7	294
Mirzacho'l	434	19	415
Paxtakor	492	32	460
Forish	996	14	982
Yangiobod	283	9	274

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ulushi
(hududlar kesimida 1-yanvar holatiga ko'ra, %)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 529 tasi (32,3 %) Jizzax shahri, 2 544 tasi (18,2 %) Sharof Rashidov, 1 104 tasi (7,9 %) G'allaorol hamda 1 094 tasi (7,8 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14 011 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3 602 tasi (25,7 %) – savdo, 2 765 tasi (19,7 %) - sanoat, 2 481 tasi (17,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 800 tasi (12,8 %) - qurilish, 1 101 tasi (7,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 587 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 167 tasi (1,2 %) – axborot va aloqa, 165 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi va 1 343 tasi (9,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ulushi (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, %)



2019-yil yanvar-dekabr oylarida 3 432 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 113 taga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahri (1 031 ta), Sharof Rashidov (588 ta), Zomin (304 ta) va G'allaorol tumanlari (280 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangiobod (71 ta), Zafarobod (86), Arnasoy (113 ta) hamda Mirzacho'l (123) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-yil yanvar-dekabr holatiga, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1 100 ta), sanoatda (751 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (554 ta) va qurilishda (438 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (34 ta), axborot va aloqada (46 ta) hamda tashish va saqlashda (103 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar
(2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 779 tani tashkil etib, ulardan 733 tasi yoki 94,1 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 44,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarining soni
(hududlar kesimida 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar-dekabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jizzax viloyati	779	733	255
Jizzax shahri	197	188	64
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	5	5	-
Baxmal	40	35	4
G'allaorol	57	56	26
Sharof Rashidov	198	189	58
Do'stlik	61	58	18
Zomin	70	64	35
Zarbdor	29	29	12
Zafarobod	47	39	15
Mirzacho'l	9	9	4
Paxtakor	12	10	6
Forish	43	40	8
Yangiobod	11	11	5

Oilaviy korxonalar soni
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni
(hududlar kesimida 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,6 % yoki 312 tasi sanoat, 20,9 % yoki 153 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 14,5 % yoki 106 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,6 % yoki 100 tasi savdo, 0,7 % yoki 5 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 7,0 % yoki 52 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ulushi
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, %)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(hududlar kesimida 2019-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jizzax viloyati	255	100,0
Jizzax shahri	64	25,1

tumanlar:

Arnasoy	-	-
Baxmal	4	1,6
G'allaorol	26	10,2
Sharof Rashidov	58	22,7
Do'stlik	18	7,1
Zomin	35	13,7
Zarbdor	12	4,7
Zafarobod	15	5,9
Mirzacho'l	4	1,6
Paxtakor	6	2,4
Forish	8	3,1
Yangiobod	5	1,9

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 255 ga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 44,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Jizzax shahri (64 ta), Sharof Rashidov (58 ta), Zomin (35 ta) va G'allaorol tumanlari (26 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Baxmal (4 ta), Mirzacho'l (4 ta), Yangiobod (5 ta) hamda Paxtakor (6 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-yil yanvar-dekabr oylarida, %)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 51,4 % yoki 131 tasi sanoat, 18,4 % yoki 47 tasi savdo, 14,9 % yoki 38 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 9,8 % yoki 25 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,4 % yoki 1 tasi qurilish, 0,4 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 4,7 % yoki 12 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 181 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 60 taga yoki 49,6 % ga o'sgan.

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 181 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Jizzax shahri (74 ta), Forish (20 ta), Zomin (15 ta), Sharof Rashidov (14 ta) va G'allaorol (14 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirzacho'l (1 ta), Zarbdor (2 ta), Do'stlik (4 ta) hamda Baxmal tumanlarida (5 ta) to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning soni

(yillar kesimida 1-yanvar holatiga, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimida soni**
(2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 117 tasi qo'shma korxonalar, 64 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni
(2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, %)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni**
(hududlar kesimida 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jizzax viloyati	181	117	64
Jizzax shahri	74	54	20
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	8	6	2
Baxmal	5	3	2
G'allaorol	14	10	4
Sharof Rashidov	14	6	8
Do'stlik	4	2	2
Zomin	15	8	7
Zarbdor	2	1	1
Zafarobod	6	1	5
Mirzacho'l	1	-	1
Paxtakor	9	8	1
Forish	20	15	5
Yangiobod	9	3	6

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (2019-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2019-yil yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 61 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahar (22 ta yoki jamidagi ulushi 36,1 %), Forish (8 ta yoki 13,1 %) va Zomin tumanlari (6 ta yoki 9,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Zarbdor, Mirzacho'l va Paxtakor (1 ta yoki 1,6 %), Baxmal (2 ta yoki 3,3 %) hamda Zafarobod tumanlari (3 ta yoki 4,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning soni


(davlatlar kesimidagi 2019-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 27 ta, Rossiya Federatsiyasi 14 ta, Turkiya Respublikasi 8 ta, Qozog'iston Respublikasi 4 ta va Koreya Respublikasi 3 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (33 ta yoki 54,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (12 ta yoki 19,7 %), savdo (6 ta yoki 9,8 %) va qurilish (5 ta yoki 8,2 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta yoki 1,6 %), tashish va saqlashda (1 ta yoki 1,6 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1 ta yoki 1,6 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



**Jizzax viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)**

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	40	32	8
Qozog'iston Respublikasi	3	2	1
Ozarbayjon Respublikasi	4	2	2
Qirg'iz Respublikasi	-	-	-
Tojikiston Respublikasi	4	3	1
Turkmaniston Respublikasi	3	-	3
Ukraina Respublikasi	2	-	2
Belarus Respublikasi	-	-	-
Armaniston Respublikasi	-	-	-
Moldova Respublikasi	1	1	-

Jizzax viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 22,1 %, Qozog'iston Respublikasi 1,7 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,2 % va Tojikiston Respublikalarida 2,2 % ga to'g'ri kelmoqda.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomasi tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat Ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Faoliyati tugatilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reestriga yuridik shaxsni tugatilanligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqida davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagisi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri



O`zbek | Русский | English

O`zbekiston RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO`MITASI

RASMIY STATISTIKA

- Elon qilish taqvimi
- Metama'lumotlar
- Makroko'rsatkichlar
- Milli hisoblar
- Narxlari va indekslar
- Investitsiyalar
- Qurilish

Xizmatlar ro'yxati
Elektron hisobot
KTYaDR ma'lumotlari
Usulbiy materiallar
K Statistik klassifikasiyalar
Taqdim etiladigan xisobotlar ro'yxati
Korxona pasporti

STIR kodini kiriting

Rasmdagli kodni kriting

6ky9k

Kodni yangilash uchun rasmiga bosing

Qidiruv

FOYDALI MA'LUMOTLAR

- Aholini ro'yxatga olish 2022
- Harakatlar strategiyasi
- Press-relemlar
- Chorak natijalar
- Nashrlar – statistika haqida
- Usulbiy materiallar

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy sayti orqali real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olish imkoniyatiga egalar.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 71 230-83-65 (66)**